



XORIJIY VA MILLIY TELEYANGILIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Bahriyeva Manija

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda telekanallarda tayyorlanayotgan informatsion dasturlarning mazmun-mohiyati va janr masalalari haqida so'z yuritiladi. Jumladan, "O'zbekiston-24", "Sevimli" va "Zo'rTV" telekanallari orqali efirga uzatilayotgan informatsion dasturlar hamda Rossiya va Turkiya davlatlarining telekanallarigi informatsion dasturlarning tayyorlanishi qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: informatsion janr, tahliliy janr, xabar, jonli efir, muharrir va muxbir yondoshuvi, mahorati hamda studiya imkoniyatlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы содержания и жанра информационных программ, которые сегодня выпускаются на телеканалах. В частности, будет проведен сравнительный анализ информационных программ, транслируемых по телеканалам "Узбекистан-24", "Фаворит" и "зыртв", а также подготовка информационных программ для телеканалов России и Турции.

Ключевые слова: информационный жанр, аналитический жанр, сообщение, прямая трансляция, подход редактора и репортера, навыки, а также возможности студии.

Annotation. This article discusses the content and genre of information programs that are being produced on TV channels today. In particular, a comparative analysis of information programs broadcast on Uzbekistan-24, Favorit and zyrtv TV channels will be carried out, as well as the preparation of information programs for Russian and Turkish TV channels.

Keywords: information genre, analytical genre, message, live broadcast, editor and reporter approach, skills, as well as studio capabilities.

Jurnalistika – axborot faoliyati sifatida inson tafakkurida aks ettiradigan dunyo. Uning o'zi ham ushbu dunyoning bir qismi va tizimdir. Jurnalistlar jamiyat va shaxsiy hayotning imkon qadar to'liq tasvirini aks ettirishini ta'minlashi, jamiyatda yuz berayotgan holatlardan vaqtida xabardor bo'lishi, maqbul yechimlarni ishlab chiqish maqsadida yuzaga kelayotgan muammolar haqida keng jamoatchilik muhokamasini o'tkazishi eng muhimi vaziyat va holatga mas'ul mutaxassislarning fikrini o'rganishi muhim.

Teleyangililarni tayyorlashdagi o'ziga xos xususiyat, bu ma'lumotni tanlash, video ketma-ketligi, "rasmlar" mavjudligini qo'shish uchun turli xil ekspressiv vositalarni ularning eng xilma-xil kombinatsiyalarida ya'ni;

tasvir + so'z + musiqiy hamrohlik + shovqin





singari imkoniyatlardan foydalanishdir. Bir qarashda, yangilik hodisaning boshqa barcha hodisalardan ajralib turadigan ma'lum bir sifatidir. Ammo jurnalistika kasbida yangiliklar, aksincha, voqealarni tahlil qilishda qo'llaniladigan mezon bo'lib, yangilikni aniqlashning bu mezoni ommaviy xarakterga ega bo'lishi kerak¹

Dautova mazkur fikri bilan informatsion dasturlarning tayyorlanish sxemasini ko'rsatmoqda deyish mumkin. Umuman olganda OAVdagি materiallarning shakli, janri rang-barangligi uni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish va chuqr ijtimoiy qatlamlarga kirib bora olish funksiyasidan kelib chiqadi. Biz buni jurnalistikada "janr" deb ataymiz. Janr tushunchasi uch yo'nalishda informatsion, tahliliy va badiiy-hujjatli janrlardan iborat.

Informatsion janrda – xabar, intervyu, reportaj, hisobot alohida ahamiyatga ega. Axborot janrlari, asosan voqeа, hodisalar haqida ma'lumot berish vazifasini bajaradi. Axboriy janrda Kim? Nima? Qachon? Qayerda? kabi savollarning javobi to'laqonli aks etishi lozim. Tahliliy janrlar esa borliqni oddiygina qayd etish, u haqda xabar berish bilangina cheklanib qolmay, balki hayotdagi fakt, voqeа va hodisalarning ichki mohiyatini ham ohib beradi². Mazkur janrlar orasidan informatsion va tahliliy janr yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan ko'rsatuvlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

Bugungi kunda jurnalistlarimizga muhim vazifa yuklatilganki, u ham bo'lsa axborot makonida o'z pozitsiyasini saqlab qolish, o'z ustida ishlashlari, izlanishlar olib borishlari lozimligi, voqealarning mohiyatiga yetib borishda tajribaning yetishmasligi, informatsiyani tomoshabinlarga ta'sirchan qilib tayyorlashda yondashuvning sayozligi yaqqol sezilib qolmoqda. Tan olishimiz kerak oxirgi yillarda telekanallar faoliyatiga bo'lgan talab anchayin kamaygandek. Har qanday axborotni kishi internet saytlardan topishi mumkin. Bu orada informatsion dastur muharriri va muxbiri mavzuga oydinlik kiritib, uni tasvirga olib, montaj ishlarini amalga oshiraman degunicha bir necha soat vaqt ni yo'qotadi. Kamida yuqorida qayd etilganidek, tajribasizlik masalasi. Shunga qaramay, ahamiyat berishimiz lozim bo'lgan jihat borki, bu ham bo'lsa tv orqali efirga uzatilayotgan xabarlarni tayyorlashda rasmiy ma'lumotlarga tayanilanadi. Shunga hamohang ravishda yurdoshlarimiz ham davlat telekanallari orqali efirga uzatilayotgan xabar-yangiliklarning haqqoniyligiga ishonishadi. Ammo davlat

¹Даутова Р.В. , Анохин А.И. Жанры и модели новостной тележурналистики: учебно-методическое пособие для магистрантов/ Р.В.Даутова, А.И.Анохин – Казань: Казан. ун-т, 2018

² <https://quizlet.com/70741944/>





telekanallarining “eskicha” uslubdagı yondashuvi, ma'lum qoliplardan chiqolmayotganligi sezilib qolmoqda. Bu borada muharrirlik sohasi 20 yillik tajribaga ega davlat va xusisiy telekannallarida faoliyat yuritayotgan jurnalist Dilbar Aralova quyidagi fikrlarni bildirdi; “*Biz hanuz eski sobiq ittifoq qolipidamiz. Jahon standartlari bilan hamnafas emasmiz. Buning yagona chorasi senzurani yo'qotish va xususiy oavlarni ko'paytirishdir. Raqobatda eplagani eplaydi, boshqasi “sinadi” – demak raqobat muxini yaratish kerak. MTRK xususiy bo'lganda sinib ketardi allaqachon*”.

Yana bir mutaxassis Ilmira Rahmatullayevanıg TELEVIDENIE VA YOSHlar: KEChA VA BUGUN nomli monografiyasida ... “*Davr” direksiyasi yuqori sifatli texnologiyalardan foydalanilayotgan bo'lsada, ushbu ko'rsatuvlarning barchasini davr talabi darajasida deyish mushkul. Ijodkorlarning tafakkurisiz hech qanday samara bermasligi ayon haqiqatdir. Holbuki, bu ko'rsatuvlarda ko'pincha mavzularning dolzarb emasligi, odamlarning kundalik turmushlari bilan bog'liq muammolar, haqiqatlar emas, balki, odatiy, an'anaviy mavzular aksariyat hollarda hukumatning so'nggi kunlarda qabul qilgan qarorlari tahlil qilinadi*”³ – deydi muallif bundan 18 yil muqaddam, tahlillar asosida yozilgan mazkur monografiyasida. Bu borada jurnalistlarga jasorat yetishmasligi bilan izohlaydi I. Rahmatullayeva. Ho'sh oradan bir farzand tug'ilib voyaga yetadigan davr oralig'ida milliy telekanallarimizdagı holat o'nglandimi? OAV lariga berilgan imkonoyatdan soha vakillari qay darajada foydalanishmoqda? Mazkur savollarga javobni informatsion dasturlar “O'zbekiston-24” teleknalidagi “Янгиликлар-24”, “Tahlilnoma” “Sevimli” telekanalidagi “Yangi Zamon”, “Zo'rTv” telekanalidagi “Bukun” singari milliy, Rossiya davlatining “1 Hd – Первый канал”, “Москва 24” hamda Turkiya telekanalining “TRT Haber” dasturi misolida tahlil qilishga harakat qilamiz.

Rossiyaning “1 Hd – Первый канал” telekanalida 2021-yilning 5-oktabr kuni jonli efir orqali informatsion dastur uzatildi. Birinchi suratga olish guruhi a'zolari kosmonavt-komandir Anton Shkaplerov, rejissyor Klim Shipenko va aktrisa Yuliya Peresilddan iborat ekipaj Baykonur kosmodromidan orbitaga uchirilganida ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Teleboshlovchi Yekaterina Beregovskaya parvoz qanday davom etishi haqida gapirar ekan bu vaqtida, uning yonida ekranda kosmik kemaning virtual modeli taqdim etildi va raketaning uchishi, raketa qismlarining ajratilishi hamda

³ Ilmira Rahmatullayeva TELEVIDENIE VA YOSHlar: KEChA VA BUGUN Toshkent “Yangi asr avlodı”, 2005. .B.: - 85





orbitaga chiqishdan boshlab butun jarayon ko'rsatildi. Boshlovchi jarayonni sharxlar ekan ravon nutq usullari hamda ma'lumotlarning aniqligi, muhimligiga erishdi, shunindek, taqdimotchining nutqini tushunish oson, temp saqlanib qolindi: "Asosiy - boshlash. Boshlash. Yonish. Ushbu buyruqlardan so'ng, beton idish 1700 daraja haroratli olov bilan to'ldirildi. Raketa birinchi bosqich dvigatellari tomonidan yuqoriga ko'tarildi."⁴ E'tibor beradigan bo'lsak, faqat maxsus telekanallar 3D texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega, chunki bu tayyorgarlik va katta moliyaviy investitsiya talab qiladi.

Ho'sh studiya imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish borasida milliy telekanallardagi holat qay darajada? Biz buni "O'zbekiston24" telekanalidagi "Tahlilnama" dasturi misolida tahlil qilamiz. 2022-yilning 7-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan O'z kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi Jo'rabek Mirzamahmudov o'rtasidagi muloqot haqidagi reportaj tavsiotlarini teleboshlovchi Jamshid Umrzoqov keng, yorug' va so'ngi rusumdag'i, gorizontal hamda vertikal yarim aylana o'rnatilgan monitor fonida taqdimot qilishni boshladi. "Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik haqida gap ketganda O'zbekiston kimyo sanoatida amalga oshirilayotgan yirik loyihalarni ham misol sifatida keltirish mumkin. Masalan Navoiy azotda qad rostlayotgan yangi kimyo klasterlari uchun bug' gaz qurilmasi hamda 250 mega vat quyosh fotoelektrstantsiyasini qurish loyihasiga Germaniyaning Simins, Fransyaning Idef, Gollandiyaning Stomsity kompaniyalaridan 1 mlrd dollardan ziyod mablag' jalb etilishi kutilmoqda..." singari jumlalar bilan dasturni davom ettirdi. Jarayondagi asosiy masala teleboshlovchining ravon va tushunarli nutqi va yoki taqdim etilayotgan ma'lumotlar emas, balki rossiyalik hamkasbimiz Yekaterina Berezovskaya singari studiya imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana ololmaganlik masalasida. Misol uchun "Keyingi 5 yil kimyo sanoati uchun tarixiy yillar bo'ldi. Uzoq yillar zarar bilan ishlagan tarmoq minusdan plusga chiqdi. Bu fakt "⁵ – singari jumlalarni yillar kesimida dinamika usulida tayyorlab monitorda ko'rsatish mumkin edi degan taklifni ilgari surmoqchimiz.

Aynan mazkur telekanalning yana bir teleboshlovchisi Islom Qoraboyev ham qo'shni Tojikistonda 11:39 da yuz bergen zilzila haqidagi xabarni 2020-yil 9-iyul kuni

⁴ https://www.1tv.ru/news/2021-10-05/414192-na_orbitu_otpravilsya_pervyy_kinoekipazh_yuliya_peresild_k

⁵ <https://fb.watch/o8iwsjnSJ/>





soat 12:45 e'lon qildi.⁶ E'tibor berilsa tabiiy ofat bo'lib o'tgan vaqt bilan xabar e'lon qilingan vaqt orasida deyarli 1 soat o'tgan. Bu orada dastur muharriri qo'l ostidagi montaj ustasi bilan birozgina ishlasa, natijada orqa fondagi monitorda mavzuga mos grafikani shakllantirsa bo'lar edi. Ammo afsuski ushbu jarayonda ham studiya imkoniyatlaridan foydalanilmagan.

Odatda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish bilan bir paytda, ko'plab xorijiy kanallar og'zaki ma'lumot hamda ko'ngilochar usullardan ham foydalanishadi. Barcha ommaviy axborot vositalarida boshlovchilarning nutqiga katta e'tibor berilganidek, qoida tariqasida, u soddalashtirilgan, yangiliklar matni oddiy so'zlashuv tilida taqdim etiladi. Masalan, "Moskva 24" telekanalida boshlovchi Evgeniya Miroshkina "Katta shahardagi hayot" nomli yangiliklar dasturining 2022 yil 14 apreldagi chiqishida xorijiy kiyim brendlарining Rossiya bozoridan chiqib ketishi haqida gapirganda, tomoshabinlarga ritorik savollar beradi: "*Xo'sh, ayni vaqtida Moskvadagi kiyim-kechak narxlari qancha? Qaysi mahalliy brendlар xorijiy kompaniyalar o'rnnini egalladi? Umuman Rossiyalik ishlab chiqaruvchilar bozor ehtiyojlarini qondirishga tayyormi? Katta shahar aholisi nimani tanlaydi?*"⁷ Muxbir esa bu kabi savollarga jarayonni tasvirga olish davomida jurnalistik surishtiruvga asoslangan holda javob izlashga harakat qiladi. Voqeа markazida bo'lib, real holatni ko'rsatishga urinadi.

Turkiyalik yana bir hamkasbimiz esa joriy yilning 24-fevral kuni Turkiya-Suriya hududida kuzatilgan tabiiy ofat zilziladan keyin ijtimoiy-siyosiy muammolardan biri ya'ni boshpanasiz qolgan aholiga ko'rsatilayotgan gumanitar yordam va bu borada duch kelinayotgan muammolar haqida Turkiya inson huquqlari va tengligi kengashi raisi professor Muhtaram Kilich bilan olib borgan suhbati chog'ida o'z pozitsiyasini ko'rsata olgan.⁸

Bir so'z bilan aytganda xorijiy axborot-ko'ngilochar yo'nalishidagi dasturlarni suratga olish jarayonida, boshlovchilar va muxbirlarning nutqida zamonaviy tendentsiyalarni kuzatish mumkin.

Ushbu holatda "Zo'r Tv" orqali efirga uzatilayotgan "BuKun" informatsion tahliliy dasturi ham qolishmaydi. Ushbu dastur teleboshlovchi Nurzodbek Vohidov

⁶ https://youtu.be/De78IWzdFjQ?si=j9SKIXEMFHimkH_x

⁷ <https://www.m24.ru/shows1/94/451532>

⁸ <https://www.youtube.com/watch?v=SRp9hgQAPt0>





xafta yakunida tahliliy dasturga muharrirlik ham qiladi. 2022-yilning 11-dekabr kuni hafta davomida bo'lib o'tgan voqeа-hodisalar tavsiyatiga qaratilgan tahlil efirga uzatildi.⁹ Teleboshlovchilar dastur boshlanish avvalida qop-qorong'u studiyada ramziy ma'noda sham yorug'ida so'z boshlashdi. Unda esa bir necha kun avval O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi mas'ullari bilan o'tkazilgan matbuot anjumanida aynan elektr energiyasini tejash kerakligi, bunda xalqimiz ham jonbozlik ko'rsatishi lozimligi xususida so'z yuritilgan edi. Matbuot anjumanida qatnashgan jurnalist Nurzodbek Vohidov jarayonlarni bevosita kuzatadi va bu borada tanqidiy reportaj tayyorlaydi. Ahamiyatlisi jurnalistning haqli e'tirozi sabab poytaxt ko'chalaridagi ayrim faqat chiroy uchun yoqib qo'yilgan chiroqlar o'chirildi ham. Shuning bilan cheklanmay muammoga qanday yechim topish mumkinligi bo'yicha ham tegishli vakillarga mikrafon tutdi. Shuningdek, reportaj davomida 9 oy mobaynida 1697 nafar davlat xizmatchisi jazolangani haqidagi xabar titrda berildi. Kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan "Onlayn mahalla" saytini yaratish uchun 8.5 milliard sarflanayotgani va bu haqli etirozlarga sabab bo'lganligi aytib o'tildi. Umuman 20 daqiqali tahliliy dastur davomida bir hafta mobaynida bo'lib o'tgan voqeа-hodisalarga teleboshlovchilar o'z pozitsiyasini ko'rsata oldi.

Voronej davlat universiteti Radio va televidine kafedra mudiri, proffesor Anna Shesterinaning ta'kidlashicha, "*an'anaviy ommaviy axborot vositalari tomoshabinlarni saqlab qolish yoki qaytarishga harakat qilmoqda. Ushbu urinishda televideenie ommabop videoblogerlarning usul va uslublaridan foydalangan holda efir mahsulotini yaratishga, ijtimoiy tarmoq muhiti talablariga javob beradigan videokontentni qayta tayyorlash darajasini ham qisman o'zlashtira boshlashdi*"¹⁰ Mutaxassis ushbu fikrlari bilan ayni hozirgi vaqtidagi jarayon ya'ni telekanallar xodimlarining ijtimoiy tarmoqlarga moslashuvini nazarda tutmoqda.

Bu boradagi say-harakatlar milliy telekanallarimizda allaqachon yo'lga qo'yilgan. Deyarli barcha milliy telekanllarning internetda "strim" qilish imkoniyati mavjud. Bu esa tayyorlanayotgan media maxsulotlarni auditoriyaga yetkazilishida yaxshi natija bermoqda.

⁹ <https://t.me/Nurzodlikradiosi/13>

¹⁰ Shesterina A.M. Trends in the Influence of Video Bloging on Modern TV Content. Znak: problemnoe pole mediaobrazovaniya Sign: the Problem Field of Media Education, 2021





Xabaringiz bor 2022-yilning 21-noyabr kuni Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Fransiyaga rasmiy tashrif buyurdi. Mazkur jarayon tavsiotlari barcha telekanallar va rasmiy norasmiy internet saytlari qatori “Sevimli” telekanalida ham yoritildi.¹¹

Unda “Yangi zamон” ITD muharriri va boshlovchisi Jahongir Olimov voqeani sharhlar ekan oddiy xalqona tilda, qiziqarli va o‘rn kelganda kulguli daqiqalarni sodda va ravon so‘zlab berdi. Teleboshlovchi Jahongir Olimov o‘z reportajida Proffesor Anna Shesterina aytganidek, “*ommabop videoblogerlarning usul va uslublaridan foydalanishga*”¹² harakat qilmoqda. Voqealar jarayonida o‘zi ham kadrda namoyon bo‘lib, “stendaplar” orqali jarayonni jonli tarzda sharhlab berdi.

Televidenieda jurnalist mahoratini tasvirchi va montaj ustasining mehnatisiz tasavvur qilishning sira iloji yo‘q. “Yangi zamон” tahliliy dasturida siyosiy uchrashuv va xalqaro darajadagi voqeа hodisalarni qiziqarli qilib tayyorlanishida aynan ushbu kasb egalarining mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Ko‘rsatuv tasvirchisi va montaj ustasi Sanjar Shermuhammedov esa tasvir va montaj ishlarini mohirlik bilan tayyorlagan. Shu o‘rinda mulohaza qilinsa, repartajni tayyorlash jarayonida tasvirchi va muxbir voqeа joyiga boradi vazifa amalga oshirilgach, kadrlar montajchiga taqdim etiladi. Aynan mazkur jarayonda qandaydir uzilish paydo bo‘ladi. Ya’ni operator o‘zi istagan va mavzuga mos holatni tasvirga olarkan, montajchi ham o‘z prizmasidan o‘tkazgan holda kadrlar ketma-ketligini joyleydi. Ammo bu ishni bir kishi ado etsa, yaxlitlik hosil bo‘lishini “Sevimli” telekanali tasvirchi-montaj ustasi Sanjar Shermuhammedov isbotlay oldi.

Kundalik materiallar mohiyatini ochib berishda nimalarga et’ibor berish kerakligi, tasvir, montaj, ovoz va jurnalistlarning uslubi, ifodaviy vositalarga murojaat etishi, ko‘rsatuvning ta’sirchanligini oshirishda nimalarga ahamiyat berish lozimligi bu, albatta, kasb vakillarining mahorat masalasi hisoblanadi. Biz kuzatuvchi sifatida soha rivoji uchun quyidagi tavsiyalarni bermoqchimiz:

- Jurnalistika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga amaliy jarayonlarni ko‘proq ko‘rsatish;

¹¹https://www.instagram.com/reel/Clevne4Kxvp/?utm_source=ig_web_copy_link

¹² Shesterina A.M. Trends in the Influence of Video Bloging on Modern TV Content. Znak: problemnoe pole mediaobrazovaniya Sign: the Problem Field of Media Education, 2021





• Ixtisoslashuv masalasini qayta ko'rib chiqish;

• Informatsion dasturlar uchun saralab olinayotgan yosh kadrlarni sinovdan o'tkazishda yangicha yondoshuvlarni yo'lga qo'yish. Masalan, kasting qilinayotgan bo'lajak muxbiriga 2-3 daqiqali sharxsiz lavhani izohlab berishni talab qilish va hokazo.

Xulosa. Axborot berishning uslublari, mualliflar qo'llaydigan janrlar, mavzuga yondoshuvlar doimo takomillashib borishini e'tiborga olib, axborot tayyorlash madaniyatini yuksaltirish, uni auditoriyasini kengaytirish uchun yangicha shakl va uslublar, ta'sirchan vositalardan samarali foydalanish masalasi doimo dolzarbligicha qolaveradi. Chunki, taraqqiyot hech qachon bir joyda to'xtab qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.I. Israil, L.I. Tashmuhammedova NOTIQLIK SAN'ATI – Toshkent: “Noshir”, 2019. – B. 152.
2. Даутова Р.В., Анохин А.И. Жанры и модели новостной тележурналистики: учебно-методическое пособие для магистрантов/ Р.В.Даутова, А.И.Анохин – Казань: Казан. ун-т, 2018
3. <https://quizlet.com/707419446/>
4. Ilmira Rahmatullayeva. Televidenie va yoshlar: Kecha va bugun. Toshkent “Yangi asr avlod”i”, 2005. – B. 85
5. <https://www.1tv.ru/news/2021-10-05/414192-na-orbitu-otpravilsya-pervyy-kinoekipazh-yuliya-peresild-k>
6. <https://fb.watch/o8iwsjnuSJ/>
7. https://youtu.be/De78IWzdFjQ?si=j9SKIXEMFHimkH_x
8. <https://www.m24.ru/shows1/94/451532>
9. <https://www.youtube.com/watch?v=SRp9hgQAPt0>
10. <https://t.me/Nurzodlikradiosi/13>
11. Shesterina A.M. Trends in the Influence of Video Bloging on Modern TV Content. Znak: problemnoe pole mediaobrazovaniya Sign: the Problem Field of Media Education, 2021
12. https://www.instagram.com/reel/Clevne4Kxvp/?utm_source=ig_web_copy_link

